



ISSN (E): 2181-4570

## **Boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliylik ruhida tarbiyalashda hadis ilmining pedagogik-psixologik asoslari**

*Narziyeva Xabiba Xudayberdiyevna*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*“Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi”*  
*(boshlang'ich ta’lim) mutaxassisligi II*  
*bosich magistranti*

**Annotatsiya:** boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda o'quvchilarga hadislarini o'rgatish orqali ularda insoniy sifatlarini o'stirish va interaktiv metodlar asosida axloqiy ko'nikmasini shakllantirish haqidadir. Hadislar orqali so'z ma'nolari ustida ham ishlash samarali ta'lim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** hadis, tarbiya, axloq, saxobalar, hadisshunos olimlar, oila, farzand, texnologiya, boshlang'ich ta'lim, takomillashtirish, ko'nikma, bilim, allomalar.

Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar o'zlarining beqiyos ma'rifatlari bilan umuminsoniy madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishgan. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ma'rifatni ilm, amal, odob bilan o'zaro bog'liq xislatlar deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko'ra, kishining odobi, xulqi uning ma'rifati, bilimdonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal bo'ladi.

Biz farzand tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning: “Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir”, – degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi ota-onalarimiz o'zlari namuna bo'lgan holda oilalarida, ishlarida, ro'zg'orlarida, uy tutishlarida, o'zaro munosabatlarida, yurish-turishlarida, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida, ular bilan bo'ladigan muomalada go'zallikni yarata olishlari zarur, degan g'oya o'z aksini topgan.






Ajdodlarimiz ham o'zlari namuna bo'lgan holda o'z farzandlariga pandu nasihatlar qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak", — degan ekan. Arab hikmatlarining birida: "Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi ha-yotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilish. Inson ikki narsaning qadrini faqat yo'qotgandagina biladi: biri yoshlik, biri sog'liq", — deb ta'kidlangani bejiz emas. Darhaqiqat, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala va munosabatda bo'ladi hamda o'sha jamiyatdagi insonlarning axloqi, tarbiyasi ko'zgusida yashaydi, unga ko'nikib ketadi. Jamiyatda xushmuomala, tarbiyali, aqlli, tashabbuskor, faol insonlarni hamma yaxshi ko'radi. Mutafakkirlarimizning tarbiya, ilm, fanga oid qarashlarini quyida keltirishdan maqsad, ular farzand tarbiyasida unumli foydalanishda oz bo'lsada, yordam beradi, deb umid qilamiz.

Abu Homid G'azzoliy o'zining "Ihyou ulumid-din" kitobida to'rtta katta mavzuni jamlagan:

a) ibodatlar haqidagi qism, b) urf-odatlar haqidagi qism, v) halok qiluvchi va g) najot beruvchi narsalar haqidagi qismlar. Har bir qism o'ntadan, jami qirqta kitobni o'z ichiga olgan. Ta'kidlash joiz, Abu Homid G'azzoliy biror mavzuni yoritarkan, islomiy odob va an'anaga ko'ra, dastlab unga tegishli oyatlarni keltiradi, so'ngra Payg'ambarimizning hadislariga murojaat etadi, keyin esa sahobalar va boshqa ulug'larning so'zlaridan, siyratlaridan dalillar keltiradi, shundan so'ng fikrmulohazalarini bayon etadi, lozim o'rinlarda so'zlarini hujjat bilan quvvatlaydi. Biz Abu Homid G'azzoliyning "Ihyou ulumid-din" asarining "Muhliqot" (halokatga olib boruvchi ofatlar) qismini, ya'ni "Til ofatlari"ni tanladik. Ushbu kitobda muomala odobi, yuksak axloqiy intizom masalalari oyat, hadis asosida sahobalarning so'zlari, ibratomuz rivoyatlar orqali yoritilgan. Biz qisqa bo'lsa-da, til, til ofatlari haqida so'z yuritarkanmiz, tilning faoliyat va ta'sir doirasiga chek yo'q: yaxshilik sari yursa, oldida keng maydon, ufqlar qadar cho'zilgan, yomonlik yo'liga kirsam, ilon-chayonlar kabi sudralib, tubsiz tubanlikka ketishi mumkin ekani beixtiyor, har birimizni avval o'ylab, keyin so'ylashga chorlaydi.

Abu Bakr ibn Iyosh hikoya qiladi: "To'rtta shoh — Hind, Chin, Eron va Rum podshohlari bir joyga jamlandi. Biri edi: "Aytmaganlarimga emas, aytgan so'zlarimga pushaymonman". Yana biri aytdi: "Qachonki bitta so'z gapirgan bo'lsam, u so'z





mening xo‘jayinimga aylandi, men unga tobe. Gapirmagan so‘zimga esa men xo‘jayin bo‘ldim, u menga tobe”. Uchinchisi dedi: “Gapirgan gapi o‘ziga qaytarilsa, zarar beradigan, agar qaytarilmasa, foyda bermaydigan gapiruvchiga ajablana- man?!” To‘rtinchisi dedi: “Aytganlarimdan ko‘ra, aytmaganla- rimni rad qilish menga osonroq”.

Abu Zar deydi: “Rasululloh sallollohu alayhi vasallam menga shunday dedilar: Badaningga yengil, mezonda og‘ir amalni senga o‘rgataymi?”

Ha, albatta, ey Ollohning rasuli, — dedim.

Bu amal – jim yurish, go‘zal xulq va behuda gaplardan tiyilishdir, — dedilar.

Ibn Mas‘ud aytdi: “Sizlarni ortiqcha gapdan ogohlantiraman! Kishiga ehtiyoj darajasidagi gap kifoyadir”.

Mujohid dedi: “Albatta, so‘zlar yozib boriladi. Hatto kishi o‘g‘lini tinchitish uchun: “Senga falon-falon narsalar sotib olaman,” – desa, uni “kazzob” deb yozib qo‘yiladi.

Mutafakkir Abu Homid G‘azzoliy qarashlaridagi go‘zal xulq, muomala, so‘zlashda aql va zakovat bilan o‘ylab gapirish, yolg‘on gapirishdan yiroq bo‘lish ilgari surilgan. Mutafak- kirning bu fikrlarini yoshlar ongiga singdirish va tarbiyalash orqali oilalardagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, turli kelishmovchiliklar, nizolarni oldini olish mumkin. Chunki yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og‘izdan chiqishi hech kimga sir emas. Shunday ekan, kelinglar, oilada farzandlarga, yaqinlarga muloyim, shirinsoz, chiroyli muomalada bo‘lib, imkon qadar namuna bo‘lishga harakat qilaylik.

Tarbiyani keng ma‘noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo‘ymaydi. U, avvalo, bolaning sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligiga e‘tibor qaratadi. Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm- ma‘rifatga ega bo‘lish uchun, avvalo, tan salomatligi zarur. Avloniy fikricha, «badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur».

Abdulla Avloniy bolaning badantarbiyasi, salomatligi masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiya- si borasida asosiy mas‘uliyat muallimlar zimmasida ekaniga urg‘u beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish, dunyoqarashini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyanan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning





tarbiyasiga bog‘liqdur», – deydi alloma. Shu bilan birga, mu- tafakkir Abdulla Avloniy: “Ta’lim va tarbiya uzviy bog‘ - liq jarayonlardur, dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”, — deya ta’kidlaydi. Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi, degan qat’iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g‘oya ruhida tarbiyalangan kishidagina Vatan tuyg‘usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg‘onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlargasiz komil insonni tasavvur etib bo‘lmaydi, degan fikrlarni ilgari suradi.

Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bog‘liqdir. Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, Avloniy ilmsizni jaholat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: “Jaholat deb o‘qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur”, – deydi. “Ilm sahroda – do‘st, hayot yo‘llarida – tayanch. Yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir”. Mutafakkir: “Go‘zallik yuzda ermas, ey birodar, so‘zi shirin kishi har kimga yoqar”, “So‘zing oz bo‘lsinu, ma’noli bo‘lsun, eshitganlar qulog‘i durga to‘lsun,” — deb insonlarni xushsuxan bo‘lishga chorlaydiki, toki so‘zlarimiz farzandlarimiz uchun namuna bo‘lsin.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rog‘ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Odob masalasini insoniyat tarixida to‘laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o‘z





odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiyluk manbai hisoblanadi". Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzuomidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib






qochishga undaydi”. Shuning uchun ham ta’lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, “Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi”.

“Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqolab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish”. Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko‘rsatma san’atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” deya ta’kidlab o‘tdi.

Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o‘z farzandlarimizni baxtisaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo‘lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish o‘z oilamizning mustahkamligini ko‘rishni istar ekanmiz, demak oilada o‘qituvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy






ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega". Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Hadis (arab. — xabar, gap, yangilik) — Muhammad sollallohu alayhi vasallam aytgan so'zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to'g'risidagi rivoyat. Islom dinida Qur'on karimdandan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va sanad. Hadis 2 turga — Hadisi qudsiy (ma'nosi Alloh taoloniki, aytilishi Rasululloh tomonidan bo'lgan hadislar) va Hadisi nabaviyga bo'linadi. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

Hadis qanday ko'rinishda bo'ladi?

Ey Odam farzandi! Biror yangi kun yo'qki, Yer senga o'zining tilida: «Ey Bani Odam, ustimda yurasan, keyin qo'ynimda g'amga ko'milasan, ustimda nafsing tusaganini yeysan, qo'ynimda qurtlarga yem bo'lasan», demasa. (Biror kun yo'qki, Yer senga o'z tilida:) «Ey Bani Odam! Men qo'rqinch uyiman, sen so'roq qilinadigan uyiman, kimsasiz uyiman, zulmat uyiman, ilonlaru chayonlar uyiman, bas, meni xarob qilavermasdan obod etmaysanmi?» demasa».

Qur'ondan barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad sollallohu alayhi vasallam o'z hadislarini aytardi. Bu hadislarini payg'ambarlarning safdoshlari ya'ni sahobai kiromlar yodda saqlashga harakat qilardi. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam vafotidan so'ng hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar uni





yozma shaklda to'play boshladilar. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy rohimahulloh yozdi. Undan keyin birin-ketin hadis to'plamlari tasnif etila boshladi. Lekin bu to'plamlar muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo'lib, ularda Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam hadisleri bilan sahobalar va tobe'inlarning fatvolari bir manbada jam qilib yuborilgan edi.

### **To'rli xil yo'nalishi**

Hijriy 3-asrda hadis ta'rif etish sohasida „sunan“ deb atalmish turli yo'nalishlar vujudga keldi. „Musnad“ yo'nalishida tasnif etilgan to'plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko'ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Abu Hanifa, Ahmad ibn Hanbalning rohimahullohning hadis kitoblari shu yo'nalishga mansub. „Sahih“ yo'nalishiga tug'ri, ishonarli hadislar kiritilgan. Bu yo'nalishga Imom Buxoriy rohimahulloh asos solgan. „Sunan“ yo'nalishidagi to'plamga esa, to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda „zaif“ hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Abu Iso at-Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja rohimahullohlar to'plamlari shu yo'nalishga mansubdir.

### **Ilk hadis Movarounnahrda**

Movarounnahrda birinchi bo'lib Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy rohimahulloh hadis to'plamini tasnif etgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rohavayh al-Marvaziy, Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma'qul an-Nasafiy va boshqalar hadis to'plamlarini tasnif etishgan. Keyinchalik, milliy-siyosiy ixtiloflar natijasida, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam nomidan yolg'on hadislar to'qish, fiqh va kalom ilmi sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga xushomadgo'ylik oqibatida ko'plab ishonarsiz, to'qima hadislar yuzaga kelgan

9-10 asrlarda

Davr o'tishi bilan hadislar tanlanib, muhim deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshladi. 9— 10-asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb tanilgan hadisning 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: „Sahihi Buxoriy“, „Sahihi Muslim“ (qarang Muslim ibn Hajjoj), „Sahihi Termiziy“, „Sunani Abi Dovud“, „Sunani Ibn Moja“, „Sunani Nasoiy“. ko'proq e'zozlanadi. Bu 6 ta hadis to'plamini tuzgan muhaddislardan 2 tasi movarounnahrlik, 4 tasi esa xurosonlik bo'lgan. Hadislar to'plami „sunna“ deb nom olgan. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar „muhaddis“ deb atalgan.








Islomni qabul qilgan xalqlar madaniy va g'oyaviy merosining ko'p unsurlari islomga hadis shaklida o'tgan. Hadis yig'ish o'rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyati bo'lib, bilim izlashning asosiy mazmuni hisoblangan. Hadislar qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo'lgan; undan hikmatli so'z va matal sifatida ham foydalanilgan. Imom Buxoriyning „Sahihi Buxoriy“ asari islom olami oliy o'quv yurtlarining shariat fatlvolarida asosiy o'quv qo'llanmasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Imom Buxoriyning Hadislar to'plami 4 jildda (1-j. — 1991, 2-j. - 1996, 3-j. - 1994, 4-j. -1992), 2-nashri esa 1997-yilda Toshkentda nashr etildi. Abu Iso Muhammad Termiziyning „Sahihi Termiziy“ Hadislar to'plami 1-jildining o'zbekcha tarjimai 1999-yil Toshkentda chop etildi. Bulardan tashqari „Ming bir hadis“ tarjimai, „Qudsiy hadislar“ tarjimai ham nashr etildi.

### **Islom nuqtai nazaridan**

Ma'lumki, tarixan g'oyatda qisqa muddatda nozil bo'lgan Qur'oni karim oyatlari ba'zi hollarda umumlashtirilgan, murakkab holda keltirilgan bo'lganligidan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadislarini ushbu oyati shariflarni kengroq talqin etadi, ularni oddiylashtirib bayon qilib, unda keltirilgan voqea va hodisalarni ko'pchilikka tushunarli qilib mufassal holatda sharhlaydi.

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam hadislarini u zoti sharif yashagan davr uchun haqiqiy bir ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Chunki ular sarvari olamning hayotlari, husni axloqlari, adolatli jamiyat qurish yo'lida ko'rsatgan beqiyos sa'y-harakatlari, yaxshiligu xayr-barakatga asoslangan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mana shularga binoan oldin o'tgan hech bir payg'ambarlar va ulug'larga ko'rsatilmagan alohida bir e'tibor bilan ilm ahllari hadislarini to'plashga kirishdilar. Hadis ilmi bilan shug'ullanish eng aziz va sevimli mashg'ulot hisoblanib, ularni to'plash uchun olimu ulamolar butun aql-zakovati-yu qalb qo'ri bilan kirishganlarini alohida ta'kidlash zarur.

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam hayot vaqtlarida hadislarini yozib olish odat bo'lmagan. Ayrim sahobalarning fikricha, Payg'ambarning sollallohu alayhi vasallam o'zlari hadislarini yozma qayd etishni man qilganlar. **«Mendan Qur'ondan boshqa hech narsa yozmanglar, agar kimki biror narsa yozgan bo'lsa, o'chirib tashlasin. Mendan faqat hadis aytinglar, xolos. Buning hech zarari yo'q»**, deb uqdirganlar avvaliga Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning o'zlari. So'ngra Payg'ambarning sollallohu alayhi vasallam o'zlari Abdulloh ibn Amr ibn al-Ossga izn qilganlaridan keyin hadislar zarur hollarda yozma ravishda ham qayd etila boshlagan.





Payg‘ambar vafot etganlaridan so‘ng ma‘lum darajada tortishuv va munozaralardan keyin har xil mavzularga doir hadislar kitobat holiga keltirila boshlandi. Masalan, sahobalardan Jobir ibn Abdulloh haj ziyoratining yo‘l-yo‘riqlari («Manosik al-haj») xususidagi hadislardan bir kichik kitob bitgan bo‘lsa, Samara ibn Jundab esa Rasulullohdan eshitgan hadislarini asosida o‘z o‘g‘illariga bir vasiyatnoma yozib qoldiradi. Tobe‘inlar davrida esa hadislarini kitobat etishga qarshilik qiluvchilar ozchilikni tashkil etib, uning kitobatini qo‘llab-quvvatlagan tobe‘iynlar esa aksariyatni tashkil etardi. Ushbu davrda, ya‘ni sahobalar va tobe‘iynlar davrida ikki xil fikr qaror topib, hadislarini ham yozma, ham og‘zaki tarzda rivoyat qilish odat tusiga kirgan edi.

Hadislarini tadviyn etish ularni muayyan bir to‘plamga yig‘ish, demakdir. Dastavval hadislarini to‘plam shaklida qayd etishni boshlagan olim Abdulaziz ibn Marvon (vafoti 704 yil) hisoblanadi. U Misrda amirlik vazifasida bo‘lgan, lekin o‘z maqsadiga erishmasdan burun vafot etadi. Uning ishini o‘g‘li Umar ibn Abdulaziz (vafoti 720 yil) davom etdiradi. Hadislarini bu tariqa qayd etilishidan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlar ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli)larini noqis mavzulari bilan aralashib ketishining oldini olish va muayyan hadisni rivoyat qilgan roviy va ulomalarning vafotlari tufayli ularning yo‘q bo‘lib ketish xavfidan edi. Shu boisdan ham Umar ibn Abdulaziz hadislarini yozma qayd etishni buyurganda Madina ahliga «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini eshitgan zahotingiz yozib olingizlar, chunki uni bilgan ulamolarning dunyodan o‘tib ketishlaridan xavotirdaman», deb yozgan edi. Umar ibn Abdulaziz bu muhim vazifani topshirgan muhaddislarning boshliqlaridan Abu Bakr ibn Muhammad ibn Amr ibn Hazm, Muhammad ibn Muslim ibn Shihob az-Zuhriylar bor edi.

### **Diniy asarlar**

Boblarga ajratilgan yirik asarlar (Al-Javomi’ al-mubavabba). Bu asarlar turli-tuman mavzularni o‘zida qamragan bo‘lib, ularga boblarga ajratilgan holda tartib berilgan.

Mana shu asarlardan Imom Buxoriyning „Al-Jomi’ as-sahih“, Imom Muslim ibn al-Hajjojning „Al-Jomi’ as-sahih“, Termiziyning „Al-Jomi’ al-Kabir“, imom Abu Dovudning „As-Sunan“, imom Nasaiyning „As-Sunan“, imom Ibn Mojaning „As-Sunan“, imom Ad-Dorimiyning „As-Sunan“ kabi asarlarini ko‘rsatish mumkin.

### **Musnadlar (Al-Masoniyd).**





Bu uslubdagi asarlarda ma'lum bir sahobaning rivoyatlari bir joyda zikr qilinib, undan keyin ikkinchi sahoba davom ettiradi. Bu asarlarda keltirilgan hadislar mavzularga rioya qilinmaydi. Masalan, imom Ahmad ibn Hanbal o'zining „Al-Musnad“ nomli yirik asarida avval to'rt to'g'ri xalifalarning (chahoryorlar) rivoyatlarini keltirib, keyin birin-ketin boshqa sahobalarning rivoyatlarini keltiradi. Hammasi bo'lib uning asarida to'qqiz yuz to'rtta sahoba zikr qilinadi. Muallif o'z asarini boblarga ham bo'lganligini aytish mumkin.

### **Mo'jamlar**

Mo'jamlar (Al-mao'jim). Bu xildagi to'plamlarda musannif asariga o'z shuyux (ustoz)larining hadislarini kiritib, ularning ismlarini mu'jam (alifbo) tartibida keltiradi.

Payg'ambar alayhissalomning hadislar Islom jamiyatining ijtimoiy va ma'naviy hayotida o'z mazmun-mohiyatiga qarab egallagan o'rinlari ham turlicha bo'lgan. Shunday hadislar bo'lganki, ularni jamiyatning barcha a'zolari bilishlari zarur bo'lgan, ya'ni bu xildagi hadislar ommaviy iste'molda bo'lgan. Shu boisdan ham ulamolar, muhaddislar mana shunga asoslanib, ularni targ'ib qilganlar, lekin ba'zi hadislar bo'lganki, ularni ayrim shaxslar bilishining o'zi kifoya bo'lgan. Mana shu xususiyatlarga ko'ra hadislarini ba'zi olimlar, jumladan Imom Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy ikki asosiy qismga bo'ladi:

### **Hadis turlari**

1. **Uzluksiz hadislar** (al-hadis al-mutavotir). Bu xildagi hadislar roviylari juda ko'p bo'lib, ular bir-birlariga bog'lanmagan va yolg'on (kizb) gapirishlari amalda mumkin bo'lmagan roviylardir. Bu xildagi hadislar ayniqsa jamiyat a'zolarining amaliy hayotiga, masalan, namoz, ro'za, zakot, haj farzlariga doir hadislarida ko'p uchraydi.

Shuningdek, uzluksiz hadislar ikki xilda bayon etilishi mumkin: lafziy uzluksizlik - bunda hadisdagi so'zlar (lafzlar) deyarli o'zgartirilmay bir xilda bo'ladi. Mazmuniy (ma'naviy) uzluksizlikda esa rivoyat qilinadigan voqealar qisman o'zgartirilishi (ya'ni, juz'iy farqli bo'lishi) ham mumkin.

2. **Yakka hadislar** (al-ohad). Istiloh sifatida bu hadislar uzluksiz hadislar shartlari bo'lmaydi, bu xildagi hadislar roviylarining soni chegaralangan - ko'pincha bitta bo'ladi. Odatda yakka hadislar dalil va isbotlar bilan asoslanadi. Bunda ushbu hadisni naql qiluvchisining to'g'ri so'zligi, rivoyat qilinadigan hadisni xatodan xoli bo'lib, ishonchli bo'lishligi kabi masalalar ilm ad-diroyat orqali chuqur tadqiq qilinadi. Yakka hadislar uch xil bo'ladi:





1. **G‘arib hadislar.** Muhaddislar fikricha, bir roviy tomonidan rivoyat qilingan hadislar g‘arib hadislar deb ataladi.

2. **Aziz hadislar,** deb ikki roviy rivoyat qilgan hadislariga aytiladi.

3. **Mashhur hadislar,** deb ikkitadan ortiq roviy rivoyat qilgan hadislariga aytiladi. Biroq bu hadislar uzluksiz hadislar darajasiga yetishmaydi va ular sahih (ishonchli, to‘g‘ri), hasan (yaxshi, ma‘qul) va zaif hadislar bo‘lishlari mumkin. Oliy isnod (al-isnod al-oliy) va pastlovchi isnod (al-isnod an-nozil). Rasulullohga nisbatan bo‘lgan roviylarning ko‘pligi yoki ozligi hamda o‘tgan vaqtiga qarab isnodning oliyligi yoki quyilashuvi belgilanadi. Imom al-Buxoriy keltirgan hadislarining isnodi, ko‘pincha u bilan Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam o‘rtasida uch roviydan tashkil topadi. Boshqa hollarda esa mazkur hadisning rivoyat qilganda uning isnodi to‘rt yoki besh roviydan bo‘lishligiga ham erishadi. Binobarin hadisshunoslikda uch isnodliklar isnod oliy, to‘rt va besh isnodliklar esa isnod nozil (quyilovchi isnod), deb qabul qilingan. Oliy isnod mansub hadislarining sahih (ishonchli) bo‘lishlari asosiy shartlardan hisoblanadi.

### **Sahih hadislar**

Sahih hadislar, deb isnodi boshidan oxirigacha adolat bilan hech bir kamchilig-u illatsiz rivoyat qilinadigan hadislariga aytiladi. Sahih hadislarining yana talay shartlari ham bo‘lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Sanadni uzluksiz bog‘lanishi (ittisol as-sanad) — bu shundayki, hadisni rivoyat qiluvchi roviylarning silsilasi boshidan oxirigacha hech bir uzluksiz bo‘lishi shart. 2. Keltiriladigan hadis roviylarining hammasi o‘z dinida adolatli, sobitqadam kishilar bo‘lmog‘i kerak. 3. Rivoyat qiluvchi komil musulmon bo‘lishi shart, chunki ular dinda mustahkam insonlardir. 4. Rivoyat qiluvchi aql-idrokli kishi bo‘lmog‘i zarur. 5. Roviylar balog‘atga yetgan inson bo‘lishi kerak. 6. Roviylar fisqu-fasoddan xoli, sog‘lom fikrlovchi inson bo‘lishi kerak. 7. Uzuq-yuluqni rivoyat qilishdan xoli kishi bo‘lishi zarur.

### **Hadis ilmidan saboqlar**

<<Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan ham hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi>>.

<<Men bir ming saksonta muhaddisidan hadis eshitdim. Ularning hammasi <<Iymon-so‘z va amaldan iboratdir>> degan e‘tiqoddagi kishilar edilar>>.

<<Hadis arabcha so‘z bo‘lib, uning bir qator ma‘nolari bor:





1) yangi, yangi narsa, yangi ro‘y bergan voqea; 2) so‘z, hikoya, naql, rivoyat; 3) Muhammad payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat. Shu o‘rinda o‘quvchilarda so‘z ma‘nolari ustida ham amaliy ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan; Imom al-Buxoriy hadislaridagi so‘zlarni ma‘nolari bilan ishlab ularni har xil ibratli ma‘nolarini o‘quvchilar bilan birga ishlasa, bolani fikrlarini teran bo‘lishiga yordam beradi.

O‘qituvchi va uning mahorati to‘g‘risida nazm mulking sultoni A.Navoiy, A.Jomiy va boshqalarning asarlarida o‘qituvchi qobiliyati, shaxsiy fazilatlarini, uning nutqi, notiqlik san‘ati, madaniyati haqida qimmatli, durdona fikrlari mavjud. Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida bola dunyoqarashining - kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-y.

3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoroyning “Al-Jomiy As-Sahih” kitobi,

4. Shayx Abdulaziz Mansur “Ming bir hadis” arab tilidan tarjimasini kitobi

5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Hadis va hayot” 1-34 juz kitobi

6. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliyning “Ey farzand” va “Thyouulumid-din” asari va uning nasihatlarini

7. Buriyev Mansur Rahmatullayevichning “Milliy mentalitemizda kechayotgan transformasion jarayonlarida milliy tarbiyaning o‘rni” maqolasi

8. N.R.Ashurovning “Milliy qadriyatlardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari” maqolasi

9. Xudoyqulov Xol Jumayevichning “Oilada milliy ma‘naviy tarbiyani rivojlantirishda maktab va jamoatchilik homkorligi masalalari” maqolasi

10. Umumiy psixologiya E.G‘oziev T 2002.

11. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi Toshkent 2006 yil.

12. “Учебно-познавательная деятельность школьников в процессе обучения” Шайденко Надежда Анатольевна

13. “Педагогические условия привлечения детей дошкольного возраста к творческой деятельности” Рыбакова Е.А.

